

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

Kurs ishi

**Mavzu: Internetdan ma'lumot qidirishning zamonaviy
texnologiyasi**

Tekshirdi: Sobirov N.

Kurs ishi rahbari: Sobirov N.

Imzo: _____

Bajardi: Oktamov Sh.

Toshkent 2016-yil

Internetdan ma'lumot qidirishning zamonaviy texnologiyasi

Reja:

I. Kirish.

II. Nazariy qism.

1. Qidiruv tushunchasi;
2. Axborotlarni qidirish;
3. Axborotlarni parametrlari bo'yicha qidirish;
4. Rasmlarni qidirish;
5. Musiqa va filmlarni qidirish;
6. WWW.UZ - milliy axborot qidiruv tizimi;
7. Mashhur Internet qidiruv tizimlari;
8. Ixtisoslashgan axborot qidiruv tizimlari;
9. Qidiruv tizimlaridan to'g'ri maqsadda foydalanish.

III. Amaliy qism.

1. *Umumiy ma'lumotlar.*
2. *Izlovchi kataloglar.*
3. *Izlovchi ko'rsatkichlar.*
4. *Web hujjatlarni izlash usullari.*
5. *So'rovlar tili.*
6. *Elektron pochta adreslarini izlash.*

IV. Xulosa

V. Adabiyotlar

Kirish

Axborot hayotimizda muhim ahamiyatga ega ekan, uni Internetdan kerakli vaqtda, zarur miqdorda, qisqa vaqt ichida olib turishimiz kerak bo'ladi. Lekin, Internetdan axborotni qisqa vaqt ichida olish muammosi ham bor. Bu darsda shu muammoni hal etish usullaridan birini ko'rib chiqamiz.

Qidiruv Tizimi (inglizchada "search engine")- immmmmmm reba bu komputerda, kompyuter tarmog'ida yoki butunjahon web tarmog'ida world wide web saqlanayotgan ma'lumotlarni qidirishga mo'ljallangan dasturdir. Internet qidiruv tizimi Information Retrieval systemdan kelib chiqqan. Bu sistema ma'lumotlar bazasi uchun kalit-so'zlar indeksini yaratib, natijada ushbu kalit-so'z qatnashgan qidiruv so'rovnomasiga javob sifatida natijalar ro'yxatini ko'rsatish imkoni paydo bo'ladi. Qidiruv tizimining afzalliklaridan biri bu kerakli ma'lumot yoki axborotni qisqa vaqt ichida komputer xotirasidan topib uni foydalanuvchiga yetkazishdir. Qidiruv tizimining asosiy vazifalari, hamda tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- Indeks yaratish va yangilab turish (hujjatlardagi ma'lumotlar strukturasi)
- Qidiruv so'rovnomalarini bajarish
- Qidiruv natijasini imkon qadar mazmunli, ya'ni tushunarli shaklda ko'rsatish

Odatda ma'lumotlar qidirish avtomatik ravishda amalga oshiriladi, masalan WWWda Webcrawler, alohida kompyuterda esa foydalanuvchi belgilagan Indexlar ro'yxatidan barcha ma'lumotlarni o'qish. **Qidiruv tizimi turlari** Qidiruv tizimlarini bir qancha belgilariga ko'ra turlarga ajratish mumkin. Quyidagi belgilar misol sifatida tanlangandir. Yangi qidiruv tizimini yaratishda ushbu belgilarning hammasini olish shart emas.

Axborotlar turi Turli xil qidiruv tizimlari turli xil axborot turlarini qidira oladi. Avvaliga umumiy qilib ma'lumotlar turini ko'rsatish mumkin, masalan, matn, tasvir, videotasvir, audiofayl va b. Natijalar ham ushbu turlarga bog'liq holda

tartibga solinadi. Matn qidirilganda natija sifatida ushbu matndan kalit-soʻz qatnashgan bir qism koʻrsatiladi. **Axborotlar manbaʻi** Klassifikasiyaning yana bir turi bu qidiruv tizimi topgan axborotning manbaʻi hisoblanadi. Koʻpincha qidiruv tizimining nomi axborotlarni qaysi manbaʻdan qidirishini koʻrsatadi.


- Web qidiruv tizimi - WWWdan maʼlumot qidiradi
- Usenet qidiruv tizimi - butun dunyoga taqsimlangan munozaralar mediumi (vositasi) hisoblanadigan Usenetdan maʼlumot qidiradi
- Intranet qidiruv tizimi - alohida tashkilotning ichki tarmogʻidagi kompyuterlardan maʼlumot qidiradi
- Desktop qidiruv tizimi - alohida kompyuterning maʼlumotlar bazasidan maʼlumot qidiradigan dastur.

Qidiruv tushunchasi.

Internet tarmog'idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan biror ma'lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Internet - bepoyon axborot ummoni. Axborotlar Internetda millionlab Web-sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan Web-sahifani topish uchun uning Internetdagi adresini bilish zarur. Ammo internet soat sayin yangi axborotlar bilan boyib boradi. Shuningdek, ba'zi (eskirgan) axborotlar Internet tarmog'idan chiqarib tashlanadi. Internetdagi ko'p foydalaniladigan Web-sahifalar adreslari maxsus ma'lumotnomalarda chop etib turiladi. Lekin ulardan to'liq axborot olib bo'lmaydi. Chunki Internetdagi barcha Web-sahifalar adreslarini chop etish uchun juda katta hajmli kitob kerak bo'ladi. Bu kitob chop etib tugatilmasidan Internetdagi bir qancha adreslar o'zgarishi aniq. Bu muammo maxsus Qidiruv tizimlari yaratilishi bilan osonlikcha hal etildi.

Internet tarmog'i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan veb-saytlar, ularning manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi.



Axborotlarni qidirish. Internet tarmog'i shunday bir muhitki u o'zida turli ko'rinishdagi va turli tillardagi ko'plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topish muammosi paydo bo'ladi. Internet tarmog'ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o'zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so'zdan tashkil topgan so'rovlardan foydalanadi. Ya'ni ma'lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so'zlar va jumlar bo'yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalanuvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma'lumotga doir so'z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga o'zi tomonidan kiritilgan so'z yoki jumlagacha mos keluvchi ma'lumotlarni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro'yxatini hosil qiladi. Vanihiyot ro'yxatdagi ma'lumotlarni ketma-ket ko'rib chiqilib kerakli bo'lganlari kompyuterga saqlab olinadi.

Axborotlarni parametrlari bo'yicha qidirish. Ko'rib o'tilganidek, har bir foydalanuvchi Internet tarmog'i orqali o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni uning mavzusi hamda tarkibidagi so'z yoki jumla bo'yicha qidirib topishi mumkin, lekin Internet tarmog'ida ma'lumotlar shunchalik ko'pki, ta'kidlab o'tilgan usul samara bermasligi mumkin. Bunday hollarda Internet qidiruv tizimlari qidiruvning bir qancha qo'shimcha usullari bo'yicha qidiruvni taqdim etadi, bular:

- ma'lumotlarni uning tili bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning turi (matn, rasm, musiqa, video) bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni xavfsiz qidiruv.

Rasmlarni qidirish. Rasmlar ma'lumotlarning grafik yoki tasvir ko'rinishi hisoblanadi. Internet tarmog'ida grafik ma'lumotlarning ko'plab turlari uchraydi, ya'ni: chizma (vektor), foto (rastr), harakatlanuvchi (animatsiya) hamda siqilgan rasmlar. Bunday grafik ma'lumotlar tarkibida matnli axborot mavjud bo'lmaydi.

Shundan ko'rinib turibdiki, demak rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko'pgina internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni qidirish uchun alohida bo'limga ega bo'lib, bu bo'lim orqali ixtiyoriy turdagi rasmlarni ularning nomlari bo'yicha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Masalan, quyidagi rasmga shunday qidiruv tizimlarining biri tasvirlangan.



Musiqalarni va filmlarni qidirish. Internet tamog'ida matnli yoki rasm ko'rinishidagi ma'lumotlardan tashqari musiqa va video ma'lumotlarning ham ko'plab manbalari mavjud. Internet tarmog'i orqali har bir foydalanuvchi musiqa eshitishi, radio tinglashi, teledasturlar yoki videofilmlarni tomosha qilishi mumkin. Internet orqali radioeshittirish va teledasturlar namoyishi ma'lum, ushbu turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlar (serverlar) tomonidan amalga oshiriladi. Internet orqali radio tinglash yoki teleko'rsatuvni tomosha qilish uchun ushbu tizimga bog'lanishni o'zi kifoyadir. Ammo musiqa va filmlar Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlarda alohida material ko'rinishida saqlanadi. Ularni tinglash, tomosha qilish yoki kompyuterga ko'chirib olish uchun avvalo kerakligini qidirib topish zarur. Musiqa va video materiallari ustida ham grafik (rasm) materiallar kabi uning nomi yoki izohi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Bunda musiqa va filmlarni qidirib topish uchun qidiruv tizimi maydoniga materialning nomi yoki uning izohiga taaluqli biror jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi tomonidan kiritilgan jumlagacha mos keluvchi musiqa va video materiallar joylashgan veb-saytlarning ro'yhati shakllantiriladi.

Ro'yxatdagi veb-saytlar foydalanuvchi tomonidan birin – ketin ko'rib chiqiladi va kerakli materiallar kompyuterga saqlab olinadi.

WWW.UZ Milliy axborot-qidiruv tizimi. WWW.UZ – bu barcha foydalanuvchilar uchun yurtimizning Internet tarmog'idagi milliy segmenti axborotlaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Milliy axborot-qidiruv tizimini rivojlantirish ishlari axborot va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish UZINFOCOM Markazi tomonidan olib boriladi. Milliy axborot-qidiruv tizimining asosiy hususiyatlaridan biri uning ko'p tilli axborot qidiruvi (ruscha, o'zbekcha) va boshqa milliy axborot tizimlari va ma'lumot omborlari bilan o'zaro ishlay olishidadir.

WWW.UZ Internet tarmog'i foydalanuvchilariga milliy sigmentda joylashgan veb-saytlar bo'yicha qidiruv xizmatini taqdim etadi va qidiruvni veb-sayt manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va topish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari Shu WWW.UZ qidiruv tizimi Internet resurslari (veb-saytlari) katalogini va veb-saytlar reytingi yuritadi, saytlar bo'yicha jamlangan statistik ma'lumotlarni to'playdi hamda axborot texnologiyaari sohasidagi yangiliklar va maqolalarni yoritib boradi.

WWW.UZ “Katalog” bo'limi – Internet tarmog'ida ochiq holda joylashgan, O'zbekiston Respublikasiga aloqador bo'lgan, ro'yxatga olingan, izohlari keltirilgan va katalog mavzulari bo'yicha saralangan veb-saytlar to'plami. WWW.UZ katalogi foydalanuvchilari o'zlariga kerak bo'lgan saytni mavzular bo'yicha (Iqtisod, OAV, Madaniyat va boshqalar) qidirish orqali tezroq topishlari mumkin. Katalog har kuni qidiruv tizimining faol foydalanuvchilari tomonidan yangi saytlar bilan boyitib boriladi.

Shu bilan birga WWW.UZning har bir foydalanuvchisi “Top-reyting” bo'limiga kirib, barcha ro'yxatga olingan saytlar reytingini ko'rishi, “Jamlangan statistika” bo'limida esa ularning statistikasi bilan tanishib chiqishi mumkin.



Qidiruv tizimi - maxsus Web-sahifa bo'lib, Internet tarmog'idan kerakli axborotni izlab topish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunga kelib o'nlab qidiruv tizimlari yaratilgan. Ulardan ko'p qo'llaniladiganlari sifatida Rambler, Aport, Yahoo, Google larni keltirish mumkin.

Mashhur Internet qidiruv tizimlari. Internet tarmog'i yirik ma'lumotlar ombori hisoblanadi. Undan kerakli ma'lumotlarni qidirib topish foydalanuvchining oldiga qo'yilgan eng asosiy masalalardan biridir. Bunday hollarda yirik ma'lumotlar omboridan kerakli ma'lumotlarni qidirib topishda axborot-qidiruv tizimlari muhim ahamiyatga ega. Internet tarmog'ida bunday tizimlarning ko'plab turlarini uchratish mumkin. Bulardan Google, Rambler, Yandex, Yahoo tizimlari o'zbek, rus va ingliz tillarida qidiruvni olib boradigan eng mashhurlari hisoblanadi. Bular:

Ushbu mashhur qidiruv tizimlarining har biri oddiy va batafsil kengaytirilgan qidiruv hamda matnli, rasm, musiqa, video va boshqa turli shakldagi axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu turdagi axborot-qidiruv tizimlaridan foydalanib ixtiyoriy foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan ixtiyoriy turdagi ma'lumotni qidirib topishi va undan foydalanishi mumkin. Agar sizga biror ma'lumot kerak bo'lib, lekin siz uning qayerda va qanday ko'rinishda joylashganligini bilmasangiz, u holda shu kabi axborot – qidiruv tizimlaridan foydalaning.

Ixtisoslashgan axborot qidiruv tizimlari. Axborot qidiruv tizimlari – bu veb-sayt hisoblanib Internet tarmog'ida axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bunda yuqorida sanab o'tilganidek Google i Yahoo dunyodagi eng mashhur qidiruv tizimlaridan hisoblanadi. Bizning davlatimizda WWW.UZ axborot-qidiruv tizimi qidiruv so'rovlari bo'yicha ilg'orlardan biridir. Bundan tashqari Internet tarmog'ida ma'lum sohada ishlaydigan ixtisoslashgan qidiruv tizimlari ham mavjud. Bulardan eng ommaboplari:

“KtoTam” – insonlar to’g’risidagi axborotlarni qidirishga mo’ljallangan yangi turdagi axborot-qidiruv tizimi. Bunda insonlarni ismi, sharifi, familiyasi, kasbi, lavozimi va unvoni hamda tashkilot va boshqa insonlar orqali topish mumkin. “Tagoo” – musiqalarni qidirishga mo’ljallangan qidiruv tizimi. Boshqa qidiruv tizimlariga nisbatan ushbu tizim o’zining kengaytirilgan musiqa bazasidan va boshqa saytlarning mp3 resruslaridan qidirib ularning ro’yxatini shakllantiradi. So’rovda musiqa nomini, uning ijrochisini hamda albom nomlarini ham kiritish mumkin.




“Truveo” – Internetning turli resurslaridagi videomateriallarni qidirishga ixtisoslashgan axborot – qidiruv tizimi. Bu tizim orqali on-layn video hamda teledasturlar namoyishlarini ham qidirib topish mumkin. “Kinopoisk” – filmlar to’g’risidagi axborotlarni qidirish tizimi. Qidiruv vaqtida filmning nomi, chiqqan yili, janri, ishlab chiqqan davlat nomi, kompaniya nomi, akterlar ismlari hamda rejisserlar va stsensariy mualliflari ism shariflaridan ham foydalanish mumkin.

“Ebdb” – elektron kutubxonalardan kitoblarni qidirishga ixtisoslashgan axborot-qidiruv tizimi. Ushbu saytning ma'lumotlar bazasida elektron ko'rinishda tarqatiladigan adabiyotlarning ko'plab mashhurlari to'plangan. Qidiruv natijalari kitob nomlari bo'yicha guruhlanadi.

“Ulov-Umov” – rezyume va vakant joylarni qidirish tizimi. Bunda qidiruv jarayonida karera va ishga bag'ishlangan hamda ijtimoiy tarmoq va boshqa saytlar vakansiyalari tekshiriladi va ro'yxati shakllantiriladi. Qidiruv tizimlaridan to'g'ri maqsadda foydalanish. Ha, afsuski, bugungi kunda

kompyuterga va internetga yoshlar tomonidan birinchi navbatda ko'ngilochar vosita deb qaralmoqda. Ayniqsa, bolalar kompyuterga ko'zi tushgan zahoti darrov o'yinlarni so'rashadi, ko'pchilik yoshlar esa Internetga ulangani zaxoti esa rasmlar tomosha qilishni so'rashadi.

Internet resurslari xilma-xildir. Ularning ichida ham foydali ham zararli bo'lganlari ma'lumotlar uchraydi. Internet tarmog'idagi axborot-qidiruv tizimlari esa Internet resurslari ichidan so'ralgan ixtiyoriy ma'lumotlarni qidirib topib berish imkoniyatiga ega. Chunki bunday qidiruv tizimlari kalit so'zlar bo'yicha qidirishni amalga oshiradi. Foydalanuvchi tomonidan qanday ma'lumot kiritilsa, xuddi shu ma'lumotga mos ma'lumotlarni qidirib topadi. Shu narsani eslatib o'tish kerakki, har qanday axborot ham foydali va to'g'ri, rost hisoblanavermaydi. Axborot-qidiruv tizimlaridan faqatgina to'g'ri va foydali maqsadda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli nojo'ya ma'lumotlardan foydalanishdan va tarqatishdan saqlanish maqsadga muvofiqdir.



Har bir qidiruv tizimi Internet tarmog'ida o'z adresiga ega. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan qidiruv tizimlari mos ravishda www.rambler.ru, www.aport.ru, www.yahoo.com va www.google.uz adreslarga ega. Qidiruv tizimi Web-brauzer orqali ishga tushiriladi, ya'ni brauzerning adreslar satriga qidiruv tizimining adresi kiritiladi. Qidiruv tizimlari (Web-sahifasi) turli ko'rinishga ega bo'lgani bilan ularning ishlashi deyarli bir xil. Ulardan foydalanishni Rambler qidiruv tizimi misolida ko'rib chiqamiz. Qidiruv tizimida ishlash Ramblerni ishga

tushirish uchun avval Internet Explorerni ishga tushiramiz, Brauzerning adreslar satriga Rambler qidiruv tizimining adresi - www.rambler.ru ni kiritib Enter tugmasini bosamiz. Brauzer ma'lumotlar maydoniga Rambler qidiruv tizimining Web-sahifasi chiqadi:


Avvalambor, internetdan qanday axborotni izlashni aniq bilish lozim. U biror mavzu bo'yicha maqola, o'yin dasturi, kompyuter qurilmalari drayveri va hokazo bo'lishi mumkin. Agar biror maqola kerak bo'lsa, Rambler qidiruv satriga shu maqola nomi yoki maqolada uchrashi mumkin bo'lgan so'z yoki jumla, ya'ni kalit so'z kiritilib, qidiruv tugmasi bosiladi. Agar biror dasturni topish kerak bo'lsa, qidiruv satriga shu dastur nomi yoki uning vazifasi kiritiladi. Masalan, WindowsXP operatsion sistemasi uchun Laserjet 1300 printerining drayveri kerak bo'lsa, qidiruv satriga "Windows XP uchun Laserjet 1300 drayveri" (драйвер Laserjet 1300 для Windows XP) deb yoziladi. Rambler qidiruv satriga kiritilgan axborotni Internet tarmog'idagi millionlab hujjatlar ichidan izlaydi. Natijada Web-brauzer ma'lumotlar maydoniga bir necha (o'nlab yoki yuzlab) hujjatlarning gipermurojaatli adreslari va ularning qisqacha tavsiflaridan iborat Web-sahifa chiqadi. Topilgan hujjatlar ichidan keraklisini berilgan qisqa tavsifga ko'ra aniqlab olinadi.

Izlash vaqtini kamaytirish uchun kerakli axborotni mavzu bo'yicha izlash mumkin. Buning uchun Ramblerning bo'limlar ro'yxatida kerakli bo'lim tanlanadi. Bu ish tanlangan bo'lim nomi ustiga sichqoncha ko'rsatkichini olib kelib, chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Shuni aytish joizki, ro'yxatda umumiy bo'limlar berilgan. Masalan, "Sport", "Yangiliklar", "O'yinlar", "Kinozal" va hokazo. Bo'lim tanlangach, qidiruv satrida berilgan axborot Internetning faqat tanlangan bo'limga tegishli hujjatlari ichidan izlanadi.

“Rambler” endi “Yandeks”ning qidiruv texnologiyasidan foydalanadi. "Rambler" endi "Yandeks"ning qidiruv texnologiyasidan foydalanadi. "Rambler", 1996- yilda Rossiyaning birinchi qidiruv tizimi sifatida o'z faoliyatini boshlagan kompaniya, o'zining qidiruv texnologiyasidan voz kechmoqda. U hozirda

"Yandex" kompaniyasi bilan qidiruv texnologiyasi va kontekstli reklama sohasida hamkorlik qilish to'g'risida shartnoma imzoladi.

2010-yilning kuzidan beri kuzatuvchilar "Rambler"ning "Yandex" yoki "Google" foydasiga o'zining qidiruv mashinasidan voz kechishini taxmin qilib kelayotgan edi. O'shanda "Rambler" har ikkala kompaniyalar bilan ham muzokaralar olib borgan, tahlilchilar "Rambler"ning "Google" tomon yaqinlashishini kutishayotgan edi. Biroq, bunday bo'lib chiqmadi. Gap shundaki, "Rambler" 2008- yilning kuzidan beri o'zining saytiga "Google" qidiruvini o'rnatishga harakat qilib kelayotgan edi. O'shanda u o'zining strategiyasini axborot, yangiliklar qidiruvi tomon o'zgartirgandi. U elektron pochta va qidiruvdan ko'ra ko'proq yangiliklar agregatori hamda ijtimoiy servislarni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratishni boshlagan. "Rambler", shu bilan birga, "Yandex.Direkt" reklama tarmog'iga ham qo'shildi. "Yandex"ning ushbu reklama tarmog'iga "Odnoklassniki" ijtimoiy tarmog'i, Mail.ru portali hamda Microsoft korporatsiyasining Bing qidiruv mashinasi ham kiradi.



Bugungi kunda ko'plab mashhur portallar, jumladan LiveJournal.ru, Nigma.ru va QIP.ru "Yandex"ning qidiruv texnologiyasidan foydalanadi. Rambler Media – integrallashgan media kompaniyasi, butun dunyo bo'ylab rus tilida so'zlashuvchi foydalanuvchilarga Internet hamda mobil xizmatlarni ko'rsatadi. Rambler Media

kompaniyalari guruhiga internet-portal, Rambler.ru qidiruv tizimi, Lenta.ru yangiliklar sayti, "Rambler Telekom" internet-provayderi, "Index20" reklama agentligi, bir qator mobil texnologiyalar va kontent bilan shug'ullanuvchi "Rambler Interactive" kompaniyasi hamda "Begun" kontekstli reklama servisi kiradi. Bugungi kunda Runetning 14% auditoriyasi, ya'ni 4,2 million kishi "Rambler"ning qidiruv mashinasidan foydalanmoqda. Birlashgan kompaniyaga tegishli internet-loyihalardan 17 million kishi foydalanmoqda.

Yandex – Rossiyaning eng yirik IT-kompaniyalardan biri, 1997-yilda tashkil qilingan. U qayta ishlayotgan qidiruv so'rovnomalari soni bo'yicha jahondagi qidiruv saytlari ichida 7-o'rinda turadi. Bugungi kunda "Yandex" Rossiyaning internet- qidiruv bozorida 65% ulushga ega. Butun dunyoga mashhur Google esa Runetning qidiruv sohasida 22% ulushga egalik qilmoqda. "Yandex" 2010-yil 19-may kuni ingliz tilidagi qidiruvlarni amalga oshirish uchun yandex.com saytini ishga tushirdi va bu bilan u xalqaro darajaga chiqdi. Kompaniya 2010-yil yakunlariga ko'ra 439,7 mln. \$ daromad olib, uning sof foydasi 134,3 mln. \$ ni tashkil qildi.

WAIS

WAIS (Wide Area Information System) – keng profilli axborot sistemasi. Kirish uchun ochiq berilganlar bazasi sistemasi. U tarmoq resurslarini indekslangan ma'lumotlarini saqlovchi global berilganlar bazalarini majmuidir. Wais taqsimlangan berilganlar bazasida qandaydir satr yoki kalit so'zlar yordamida ma'lumotlarni topish imkoniyatini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Wais fayl nomlari va formati bilan emas, balki ularda joylashgan matnlardan tashkil topgan berilganlar bazasi bilan ish ko'radi.

Wais da boshqa xost kompyuterlarda mavjud berilganlar bazasi bilan bevosita aloqa bog'lab, kerakli hujjatni undan avtomatik ravishda oladi. Demak, Wais tufayli intermurojaatlar turli bazalar sistemasi bilan ham bog'langan. Bundan tashqari Wais da mavjud berilganlar bazasiga yangi berilganlar bazasini qo'shish mexanizmi yaxshi ishlab chiqilgan, Waisda ishlatiladigan matnlardan tashkil

topgan fayllardagi matnlar o'lchoviga hech qanday chegara yo'q. Bunday imkoniyat hozirda tijorat maqsadlarida ma'lumot olishda keng qo'llanilmoqda.

FINGER

Finger bu Internetning **buyrug'i** bo'lib, u foydalanuvchilar haqida ma'lumotlar olish uchun xizmat qiladi. Uning deyarli barcha operatsion sistemalar (Dos, Windows) uchun versiyalari mavjud. Finger buyrug'ini bajarish (Unixda) quyidagicha bo'ladi. **Finger** foydalanuvchi ro'yxat nomi (login). Misol uchun: **Finger zaripov@law.silk.org** buyrug'i bilan Internet bilan bog'lanilsa, Finger orqali **zaripov** haqida ma'lumot olish mumkin. Finger dan foydalanish uchun foydalanuvchining nomi (login) va foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan kompyuterning to'la nomini bilish kerak. Bu ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, **Finger** foydalanuvchi to'g'risida quyidagi ma'lumotni beradi: uning ismi sharifi, uy katalogi, Internet bilan oxirgi marta qachon aloqa qilgani, o'qilmagan elektron pochta borligi. Ayniqsa oxirgi ma'lumot ko'p hollarda foydali bo'lishi mumkin. Chunki xususan siz yuborgan xatingizni o'qilgan yoki o'qilmagani (olmagani) haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Finger yordamida **plan** (shaxsiy reja) agarda u uy katalogida joylashtirilgan bo'lsa, faylini ham ochib ko'rish imkoniyati mavjud. O'z shaxsiy plan faylingizda esa hoxlagan rejani yozishingiz mumkin.

Fingerdan foydalanish har doim muvaffaqiyatli kechavermaydi. Quyidagi uch holatda u kerakli natijani bermasligi mumkin. **Finger** foydalanuvchini topa olmaydi. Bunda **Finger** **attain** paydo bo'ladi. Bu esa foydalanuvchi adresi noto'g'ri kiritilganini bildiradi. Finger kompyuterni topolmaydi, **Finger unknown host: zaripov@law.silk.org**. Bu xato kompyuter nomini noto'g'ri ko'rsatilganda paydo bo'ladi. Kompyuter **Finger** buyrug'ini topa olmaydi. **Finger** zaripov@law.silk.org.


Finger: Command not found (buyruq topilmadi).

Bu uzoqlashgan kompyuter – serverda mijoz kompyuter Finger buyrug'ini topa olmadi va shuning uchun bu buyruqni bajara olmadi. Buning sababi Finger

Internetning barcha kompyuterlarida bo'lmisligidan dalolat beradi. **Finger** yordamida, xususan turli sohalarga oid yangiliklarni ham olib turish mumkin. Misol uchun: **Finger nasanews@space.mit.edu** buyruq yordamida **NASA** yangiliklarini olish mumkin. Er qimirlash haqidagi ma'lumotlar esa **Finger spyder@dns.iris.washington.edubuyrug`i** orqali olinadi.

ARCHIE

Mavjud fayllar haqidagi ma'lumotlar turli serverlarda bo'ladi. Archie kalit so'zlar orqali serverlarga talabnoma yuborish uchun xizmat qiladi. Mavjud sistema orqali archiega kirish mumkinligini tekshirish archie enter buyrug'i bilan amalga oshiriladi.



VERONICA programmasi

Veronica (Very Easy Rodent – Oriented Net – wide Index to Computer Archives –qiziquvchilar uchun kompyuter arxivlari bo'yicha ma'lumot beruvchi) ma'lumot va fayllar joylashgan serverni topish uchun xizmat qiluvchi programmadir. **Gopher** serverlarga kirish oson bo'lishiga qaramasdan ba'zan qidirilayotgan ma'lumot yoki fayl qaysi serverdaligini topish qiyin bo'lishi mumkin. Bu holda Veronicadan foydalanadi va u qaysi serverda qiziqtirayotgan fayl yoki ma'lumot borligini aniqlab beradi. U **Gopher** serverlarda menyuu punktini

aniqlab beradi. Undan ishlatish uchun Veronica serverga kirishni amalga oshiruvchi Gopher serverdan foydalanadi. Veronica ma'lumotlar bazasi dunyoda mavjud Gopher serverlarni skanerlash hisobiga to'plashgan bo'ladi. Uning ma'lumoti ma'lumotlar bazasiga gopher.tc.umn.edu serveri orqali kiritiladi. Bunda **Other gopher and Information Servers** (Boshqa Gopher va axborot serverlar) menyusi tanlanadi va uning **Search Gopher space using Veronica** bandi tanlanadi. Bunda ma'lumotlarning archive dan ko'ra osonroq tanlanishiga sabab Gopher serverlarning fayllar nomlari bilan emas, menyu bandlarini matnlar yordamida tasvirlashidir. Bunday axborot ko'proq tushunarlidir. Bu matnlar yordamida fayl yoki kataloglarning nomlari aytilishidan ko'ra ularning mazmuni so'zlar bilan aytilishini tushunish osonroq. Misol uchun biror mavzu bilan fayl nomini, faylni topishdan ko'ra ko'proq ma'lumot beradi. Shuning uchun **Veronica archive** topolmagan fayllarni ham topib beradi. **Veronica Gopher** fayllarni tadqiq qilib bo'lgandan so'ng topshiriq asosida bajarilgan barcha ishlarning menyu ro'yxatini beradi. Uning yordamida kerakligini Gopherdagidan tanlash mumkin.

ALTA-VISTA

Alta-Vista nomli programma WWWda ma'lumotlarni qidirishning zamonaviy serverlaridandir. Uning yordamida hatto rus tilida turli kodirovkada tayyorlangan ma'lumotlarni ham qidirish imkoniyati mavjud. U **KOI-8** va **Windows 1251** kodlarida berilgan sahifalarni o'qiy oladi. Keyingi paytda u orqali kuniga millionlab foydalanuvchilar turli ma'lumot bazalariga, telekonferentsiyalarga murojaat qilib turibdi.

Internetda eng mashhur izlovchi tizimlar, ularning ishlash tamoyili, afzalliklari va kamchiliklari, Internetda axborot qidirish usullarini egallash.

WWW foydalanuvchilar ixtiyoriga bir qancha hujjatlar to'plamini taqdim etadi. Shuning uchun foydalanuvchilar oldiga tarmoqda joylashgan hujjatlar orasidan uning o'zini qiziqtirgan hujjatlarni izlash masalasi doimo turadi. Ushbu masalani echish uchun izlovchi tizimlar qo'llaniladi.

Izlovchi tizimlar maxsus - Web tugundan iborat. Foydalanuvchi izlovchi tizimga birlamchi Web sahifa mazmuni haqida ma'lumotlar beradi. Sistema talabga mos sahifalarga ishoralar ro'yxatini chiqaradi. Izlovchi tizimlarning ishi bir necha modellarga asoslangan.

Izlovchi kataloglar va izlovchi ko'rsatkichlar

1. Izlovchi kataloglar.

Izlovchi kataloglar katta bibliotekadagi tizimli kataloglar tamoyili bo'yicha qurilgan. Izlovchi kataloglarga murojaat qilib, uni asosiy sahifasidan yirik keng mavzuli kategoriyalarning qisqa ro'yxatini topish mumkin. Masalan: «Ekonomika i predprinimatelstva», «Iqtisod va tadbirkorlik», «Bizness & Ekonomy»

Kategoriyalar ro'yxatidagi har bir yozuv - bu gipertimsoldir.

Izlovchi katalogni navbatdagi sahifasini ochadi, unda ushbu bo'lim batafsilroq berilgan. Masalan: «Predprinimatelstvennoe pravo» ya'ni «Tadbirkorlik huquqi» mavzusi bo'yicha istemolchining huquqini himoyalash, «Reklama va marketing», «Elektron tijorat» va boshqalar aniqlanadi.

Mavzuga kirishni davom ettirib, aniq Web – sahifalar ro'yxatiga etish mumkin

Izlovchi kataloglarni berilgan mavzu bo'yicha birlamchi, referativ izlash uchun qo'llaniladi. Ular klassik, eng mazmunli resurslarni izlashni ta'minlaydi.

Dunyoda izlovchi kataloglar soni nisbatan ko'p emas. Bu ularni ishlatishda ko'p mehnat talab etilishi bilan bog'liq (izlovchi kataloglar qo'lda yaratiladi). Dunyoda yirik izlovchi kataloglardan biri Yahoo katalogidir.

Izlovchi ko'rsatkichlar

Izlovchi ko'rsatkichlar unikal (takrorlanmas) maxsus axborotni izlashni ta'minlaydi. Izlovchi ko'rsatkichning asosiy ish tamoyili kalitli so'z (mavzuni tayanch atamalari va iboralari) bo'yicha Web-hujjatlarni izlashdan iborat. Foydalanuvchi izlanuvchi hujjatni kalitli so'zlar yordamida tavsiflaydi, so'ng izlashga vazifa beradi. Izlovchi tizim ma'lumotlar omborida saqlanadigan berilganlarni taqlil qilib, talabga mos Web sahifalar ro'yxatini chiqaradi.

Giperishoratlar bilan birga topilgan hujjatlar haqida qisqa ma'lumotlar chiqariladi. Ular asosida foydalanuvchi o'ziga zarur resurslarni tanlab olishi mumkin. Natijaviy (yakuniy) ro'yhat filtrasiya va tabaqalashtirishga duchor bo'ladi. Veb-sahifani filtrasiyasi debdeb takrorlanuvchi timsollarni olib tashlash tushuniladi. Ro'yxatlarni tabaqalashtirishda yakuniy ro'yxatda maxsus tartib o'rnatiladi, ya'ni eng «foydali» (izlovchi tizim nuqtai nazaridan) timsollar ro'yxatni boshida, kam foydalisi esa ro'yhat oxirida keladi.

Hozir jahonda 10 mingdan ortiq izlovchi ko'rsatkichlar mavjud. Chet elning eng mashhur izlovchi mashinasi Alta Vistadir. Rossiyada Aport, Rambler va Yandex quvvati bo'yicha bir xil bo'lgan izlovchi ko'rsatkichlar ishlab turibdi.

Internetda ba'zi bir mashhur izlovchi tizimlar (search tools)

Nomi

URL- adres

Tavsifi

Rus tilida izlovchi tizimlar

Aport

<http://www.aport.ru>

Oddiy izlash amallarini bajarish uchun samaralidir. Kengaytirilgan izlashni rivojlangan vositalariga ega.

Rambler

<http://www.rambler.ru>

Saytlarning reytingini foydalanuvchilarning ularga murojaatlari soni bo'yicha chiqaradi. Qulay Web- portal vazifasini bajaradi.

Yandex

<http://www.yandex.ru>

Eng mukammal so'rov tiliga ega. Rus tili grammatikasi qoidalarini bila oladi. Murakkab izlash vazifalarini shakllantirishda foydalanish qulaydir.

Ingliz tilida izlovchi tizimlar

Alta Visa

<http://www.alta.visa/>

Hujjatlarning barcha tildagi juda ko'p tavsiflari bor. Konteksli izlash amali uchun qulay va yaxshilardan biri. Ilmiy adabiyotlarni izlash uchun samarali.

Lucos

<http://www.lucos.ru/>

Konteksli va maxsus izlov qulay vositalari bor.

Northern lighth

<http://www.northern/ligth.com>

Ilmiy izlov o'tkazish uchun samarali. Web fazoni qamrab olish koeffisienti eng yaxshilaridan biriga ega.

Yahoo!

<http://www.yahoo.com>

Jahonning yirik izlovchi katalogi. Elektron pochta adreslarini izlashni amalga oshiradi.

Foydalanuvchilarni talablarini amalga oshirish uchun har xil izlovchi tizimlar har xil axborot texnologiyalarni qo'llashi mumkinligini nazarda tutgan holda axborot qidirishni samarali bajarish uchun ushbu har bir tizimlarni afzalliklari va kamchiliklarini tasavvur eta olish kerak.

4.4. Web hujjatlarni izlash usullari

Oddiy, kengaytirilgan, kontestli va maxsus izlash usullarini farqlash lozim. Oddiy izlash deb bir yoki bir necha kalitli so'zlar bo'yicha Web-resurslarni izlash tushuniladi.

Kengaytirilgan izlashni bajarishda kalitli so'zlarni o'zaro mantiqiy munosabat operatorlari bog'laydi. Agar oddiy izlash usullari hadan ko'p natijalar bergan hollarda kengaytirilgan izlashni qo'llaydilar.

Kontekstli izlash - aniq jumla (fraz) bo'yicha hujjatlarni izlashda, berilgan URL-adreslarga ishoralar hamda xizmatchi maydonlarda talab etilgan ma'lumotlar bor bo'ladi (masalan sarlavha maydonida).

Web sahifani izlashda maxsus izlash qo'llaniladi.

So'rovlar tili

Kalitli so'zlar (tayanch atama va iboralar) bo'yicha axborotlar izlashda ko'pchilik qidiruv tizimlari mantiqiy operatorlarni qo'llashni ko'zda tutuvchi

maxsus so'rovlar tilidan foydalaniladi. Asosiy mantiqiy amallarga and(&) mantiqiy «I» («va») tegishli. Masalan atama1 and atama2 – hujjatlarni izlash, unda atama1 va atama2 bir vaqtda uchraydi. OK (/) - mantiqiy «ILI» («Yoksh»). Masalan, atama1 OR atama2 - hujjatlarni izlash, ularda atama1 yoki atama2 albatta uchraydi. Not mantiqiy «NE» («Emas») . Masalan, atama1 and not atama2 - hujjatlarni izlash, ularda atamalar uchraydi, ammo atama 2 esa uchramaydi.

Eslatma. Kalitli so'zlar orasidagi bo'sh o'rin (probel), har xil izlov tizimlarida har xil anglanishi mumkin. (ko'pincha mantiqiy «VA» bog'lovchi deb tushuniladi). Qidiruv tizimlari, qoida sifatida (rus tili sintaksis qoidalariga asoslanib), so'zlarni istalgan grammatik shaklda izlaydi. So'rovlarni tuzishda metasimvollaridan foydalanish mumkin. * - simvollarini ixtiyoriy ketma-ketlikni belgilash uchun va ?- birgina ixtiyoriy simvolni belgilash uchun. ishlatiladi.

Masalan, slova* - hujjatlarni izlash, ularda (slovo, slovom, slovosochetanie va sh.o'.) «slovo» simvoli ketma – ketligi bilan boshlanuvchi atamalar uchraydi. SL?V? hujjatlarini izlash, ularda birinchi ikkita simvoli «SL», oxiridan bitta oldingi «V» , uchinchi va beshinchilar istalgan (slovo, slova, slove, sleva va sh.o'.) atamalar uchraydi.

Atamalar qavslar yordamida guruxlashtirilgan bo'lishi mumkin. Qavslar mantiqiy amallar ta'siri tartibini bildiradi.

Masalan, (atama1 & atama2) OR (atama3 AND NOT atama4) –hujjatlarni izlash natijasida olingan ma'lumotlarda atama1 va atama2 uchraydi, yoki bo'lmasa atama3 uchraydi, atama4 esa uchramaydi.

Xujjatlarni izlash uchun turg'un so'z birikmalari (so'zlarni qat'iy tartibli ketma – ketligi , jumlasini, iborasi) mavjud, ularni qo'shtirnoqqa oladilar. Qo'shtirnoqli so'zni grammatik shakli, qoida sifatida, inobatga olinmaydi. Bazi bir izlovchi tizimlar so'z birikmalarini yoki bir biridan ma'lum masofadagi so'zlarni izlay oladi. Ushbu so'z (yoki ifodalar) mavjud hujjatlarni relevantligini

oshirib, barcha so'zlarni (yoki ifodalarni) berishi mumkin. Hujjatni aniq- zonalari (maydonlari) – odatdagi matnda, sarlavhada, tavsifida, kalitli so'zlarda va sh.o'.larda izlash qo'shimcha imkoniyatlarni beradi..

Shu bilan birga bitta server yoki bir necha serverlar bilan ishlashni cheklash mumkin, aniq URL - adres yoki tasvirlarning fayllariga giperishoratlar bor hujjatlarni izlash mumkin.

6. Elektron pochta adreslarini izlash

Jaxon kompyuter tarmog'ida elektron adreslarni izlash uchun mo'ljallangan bir necha qidiruv tizimlari bor. Ushbu tizimlar ro'yhati va ularni URL – adreslari 2-jadvalda keltirilgan.

Elektron adreslarni qidirish uchun tizimlar. 2-jadval.

Nomlanishi

URL - adres

Bigfoot

<http://www.bigfoot.com>

Internet Addres Finder (IAF)

<http://www.ief.net/>

Yahoo

<http://www.yahoo.com.rips/>

WhoWhere ?

<http://www.WhoWhere ?>

InfoSpace Directory Service

[http://www. InfoSpace.com](http://www.InfoSpace.com)

Switchboard

[http://www Switchboard.com.](http://www.Switchboard.com)

Moskva va Peterburg shaxar telefon ma'lumotnomasi

<http://www.interweb.spb.ru/phone>

Ushbu ma'lumotlar bazalariga chiqish uchun faqat pochta mijozining «Adresnaya kniga» sini ochish lozim, «Poisk lyudey» tugmasi bosiladi va «Mesto poiska» ro'yhatidan kerakli tizim tanlanadi.


Outlook Express dasturi quvvatli qidiruv tizimlariga to'g'ridan to'g'ri chiqishni ta'minlaydi.

Google – eng mashhur qidiruv tizimi.

Siz savolingizni berganingizdan so'ng qidiruv tizimi o'zining ma'lumot jamg'armasidan so'rovingizga mos natijani, topilgan veb-sahifalarni ro'yxat tarzida taqdim etadi. Ro'yxatning birinchi bandlarida so'rovga eng mos kelgan veb-sahifalar joylashadi. Lekin, shuni aytib o'tish kerakki, turli qidiruv tizimlar har xil tartiblash qoidalarini ishlatadi, shuning uchun bitta so'rov bo'yicha turli qidiruv tizimlaridan har xil natijalar olish mumkin. Natijalardan tuzilgan ro'yxatning bandiga chertilsa, tanlangan veb-sahifa ochiladi.

Mashhur qidiruv mashinalar ro'yxati:

- | | |
|---|---|
| 1. Gugl – www.google.com | 5. Rambler – www.rambler.ru |
| 2. Yaxu – www.yahoo.com | 6. Aport – www.afort.ru |
| 3. Altavista – www.altavista.com | 7. Milliy qidiruv tizimi – www.uz |
| 4. Yandeks – www.yandex.ru | 8. Vse.uz – www.vse.uz |



So'rovlarni tuzish.

Agar siz o'ylanmay tezda savol bermoqchi bo'lsangiz qidiruv mashinaning satriga to'g'ri fikrlaringizni tushirishingiz mumkin. Masalan, “Qanday qilib ozish mumkin?”, “Marsda hayot bormi?”, yoki “jurnalist uchun ish” buning natijasi samarali bo'lmasligi aniq. Afsuski, o'zbek tilida Internet fazosi keng emas, shuning uchun savolingizni rus yoki ingliz tilida berishingiz kerak. Misoldagi “jurnalist uchun ish” jumlasini rus tilida “rabota dlya jurnalista” deb so'rov qilinsa tasodifan, tez kerakli ma'lumotni topishingiz mumkin. Ammo bunday umumiy savolga qidiruv tizimi sizni kerak bo'lmas ma'lumotlarga “ko'mib” qo'yishi ham mumkin. Dono odamlar: “To'g'ri berilgan savolda javobning yarimi bor” – deyishlari bejiz emas. Bu gap qidiruv mashinalariga ham taaluqli. SHuning uchun tuzayotganda ko'proq kalitli, aniqlashtiruvchi so'zlarni qo'shish kerak. Masalan: “ishu rabotu jurnalista”.

Navbatma-navbat qidirish usuli.

Bu usulning ma'nosi so'rovingiz bo'yicha natija olingandan so'ng, topilgan natijalar ichidan, so'rovga yangi kalitli so'zlar qo'shib, toki kerakli ma'lumot topilmaguncha qidirishni davom ettirish. Bu usul yordamida har bir qidiruvda kerakli natijaga yaqinlashaveradi. Masalan, siz menedjer ishini

o'rganish uchun qo'llanma axtarmoqchisiz. Bu ishni amalga oshirish uchun, birinchi, qidiruvni "menedjment" kalitli so'zi bo'yicha bajarasiz. Natijada "menedjment" so'zi 100 mingdan ortiq veb-sahifalarda topiladi. Qidiruvni aniqlashtirish uchun so'rovga "uchebnik" so'zini qo'shib, yana izlashni davom ettiramiz. Natijada topilgan saytlar ro'yxati kamayadi, lekin ularning ko'pi Internet do'konlarini ko'rsatadi, qaerda kitoblar faqat sotiladi. Agar siz kitobni sotib olmoqchi bo'lmasangiz, unda so'rovga "besplatno" (bepul) kalitli so'zini qushib, qidiruv mashinani ishga tushiring va natijada Internet do'kon ko'rsatkichlari ro'yxatdan tushib qolib, kerakli sahifalar qoladi. Endi kitobni Internetda o'tirib o'qimoqchi bo'lmasangiz, uni o'zingizning komp'yuteringizga ko'chirib olish tavsiya etiladi. Buni amalga oshirish uchun so'rovingizga "skachat" so'zini qo'shsangiz, natijada menejment haqida bepul ko'chiriladigan elektron kitoblarning ro'yxatiga ega bo'lasiz.


Aniq so'rov usuli

Agar qidirilayotgan ma'lumotning nomi aniq bo'lsa, unda so'rov satriga qo'shtirnoq belgilari qo'shiladi. Masalan, siz qo'llanmaning muallifi haqida ma'lumot topmoqchisiz va so'rov satriga qo'shtirnoq belgilari yordamida "Ilhom Teshaboev" so'zlarini kiritib, axtarish jarayonini ishga tushirasiz. Oddiy ravishda, agar so'rov qo'shtirnoq belgilarisiz bo'lganda, qidiruv mashina "Ilhom" va "Teshaboev" so'zlarni alohida uchratgan holda saytlar ro'yxatiga qo'shadi va natijada tarmoqdagi barcha Ilhom ismlar ham topiladi. Qo'shtirnoqli so'rovda esa qidiruv mashina faqat berilgan shaklda, "Ilhom Teshaboev" jumlasini bor saytlarni natija ro'yxatiga qo'shadi. Shunday qilib, aniq so'rov usulini qitata (matn parchasini) qidirishda ham qo'llasa bo'ladi.



REF.uz ma'lumot qidiruv sayti.

Bu sayit siz o'zingizga qulay bo'lgan usulda ma'lumotlar qidirishingiz mumkin. Bundan tashqari REF.uz saytiga a'zo bo'lishingiz ham mumkin. Buning uchun siz o'ng tomonda ro'yxatdan o'tish o'ynasini bosangiz kifoya. Kerakli ma'lumotlar ro'yxatdan o'tgach, siz REF.uz saytiga a'zo hisoblanasiz. Siz o'z shaxsiy bo'limchangizga ega bo'lasiz. Siz bu bo'limda o'z parol va logininigizni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bundan tashqari o'z rasmingiz hamda, o'zingiz qo'shgan ishlarni ko'rib chiqish imkoni mavjud. REF.uz qidiruv saytining qulayliklari shundaki, ham o'zbek, ham rus tillarida ishlaydi. Bu sayti siz hohlagancha o'z ishingizni qo'shish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bu saytda tanlovlar ham bo'lib turadi. Eng ko'p va eng yaxshi referat, hisobot, ilmiy ish kabi ishlarga savg'o mavjud. REF.uz sayti nafaqat o'quvchilarga, ilmiy xodimlarga va talabalarga ham mo'ljallangan.



Kataloglar yordamida qidirish

Internetdan ma'lumot olish uchun qidiruv mashinalaridan tashqari kataloglardan foydalanish mumkin. Internet-katalog – bo'limlardan iborat tizimli ko'rsatkichlar to'plami. Bu to'plamni robot emas, tajribali mutaxassislar yaratadi. Ko'rsatkichlar to'plami bir necha katta bo'limlardan iborat bo'ladi. Masalan, biznes, san'at, komp'yuter, sport va hokazo. Bunday har bir bo'lim bir necha qism bo'limlaridan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, sport ko'rsatkichiga chertsangiz futbol, basketbol, tennis va hokazo bo'limlarni topasiz. SHunday qilib, katalog daraxtsimon tizimga ega va har bir sichqoncha chertilishida ko'rsatkichlar shoxlanib ketaverishi mumkin.

Forumlar yordami.

Agar biror mavzu bo'yicha qidiruv mashina yoki kataloglar kerakli natija bermasa, bilingki, Internetda siz yagona emassiz. Balki, bunga o'xshash mavzu bo'yicha kimdir qidirgan va ma'lumotni topgan. Umumjahon tarmoqda har bir soniyada millionlab foydalanuvchilar ma'lumot qidirishadi, bir-biri bilan so'zlashadi, bir-birilariga nimalarnidir o'rgatishadi. Ana shunday foydalanuvchilarga savol bilan murojaat qilish mumkin. Deyarli o'z hurmatiga

ega bo'lgan barcha katta saytlar *Qidiruv tizimlari* mi mavjud. Bunga o'xshash bo'limlar "FORUM" deb ataladi. Forumlarni tajribali Internet mutaxassislari boshqaradi. Vaholanki, forumlarda tarmoq foydalanuvchilari bir-biri bilan tajriba almashishadi. Forumda foydalanuvchi savol berishi mumkin va bilgan odam unga javob qaytarishi mumkin. SHunday qilib, kerakli mavzu bo'yicha savol bersangiz, bir necha vaqtdan keyin javob olishingiz mumkin.

Xulosa

Shunday qilib oldimizga qo'yilgan maqsad: Veb saytlarni ishlashishini tezlashtirish muammolari va ularning yechimlari va "infocom.uz" saytining kamchiliklari va ularni bartaraf etish usullarini batafsil yoritib berdim deb o'ylayman. Agar bu maqolam siz uchun foydali bo'lgan bo'lsa "boshim osmonga yetdi".

Internet standart [internet protokoli](#) (IP) orqali ma'lumot almashuvchi [kompyuter tarmoqlarining](#) butunjahon va omma uchun ochiq to'plamidir. Bu ma'lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli [TCP/IP](#) dir. TCP/IP o'zaro bog'liq protokollar yig'indisi bo'lib, internetda ma'lumot tarqalishida asosiy o'rin egallaydi. Internet tarmog'ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonadon tarmoqlari tashkil etadi. Internet [elektron pochta](#), [chat](#) hamda o'zaro bog'langan sahifalar va boshqa [Butunjahon o'rgimchak to'ri](#) servislaridan tashkil topadi.

Internet [lot. inter — aro va net (work) — tarmoq] — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoklarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o'rni, zamon va makondan qat'i nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoklar o'zaro hamkorlikda global informatsiya in-fratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi b-n boshqariladigan barcha hosila tarmoqdar hamkorlikda iste'molchilarga informatsiyani saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko'rinishlar) da informatsiya almashinishga imkon yaratadi.

I. tizimi 20-a. 60-y.larida paydo bo'ldi. O'sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi b-n kompyuterlar telefon tarmoklariga ulana boshladi. Dastlab, bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi (AKRA) tadqiqotlari doirasida olib borildi. Bu tadqiqotlar sovuq urush avj olgan davrga to'g'ri keldi.

Adabiyotlar.

1. “Average Web Page Size Triples Since 2003” // Web Site Optimization. — <http://www.websiteoptimization.com/speed/tweak/average-web-page/>
2. “Best Practices for Speeding Up Your Web Site” // Yahoo!. — <http://developer.yahoo.com/performance/rules.html>.
3. Bouch, A., Kuchinsky, A., Bhatti, N. , “Quality is in the Eye of the Beholder: Meeting Users’ Requirements for Internet Quality of Service” // CHI. — The Hague, The Netherlands : [б.н.], 2000 r..
4. “Retail Web Site Performance: Consumer Reaction to a Poor Online Shopping Experience” // Akamai. — 2006 r..
5. Nah, F., “A study on tolerable waiting time: how long are Web users willing to wait?” // Behaviour. — [б.м.] : Information Technology, 2004 r.. — 23 : T. 3.
6. Galletta, D., Henry, R., McCoy, S., Polak, P., “Web Site Delays: How Tolerant are Users?” // Journal of the Association for Information Systems. — 5 : T. 1.
7. “The Psychology of Web Performance” // Web Site Optimization. — <http://www.websiteoptimization.com/speed/tweak/psychology-web-performance/>.
8. “CSS Tidy” // Soureforge. — <http://csstidy.sourceforge.net/>.
9. “YUI Compressor” // Yahoo!. — <http://developer.yahoo.com/compressor/>.
10. “Dean Edwards Packer” // Dean Edwards. — <http://dean.edwards.name/packer/>.
11. “Replace GIF with PNG Images” // Web Site Optimization. — <http://www.websiteoptimization.com/speed/tweak/png/>.
12. “Optimize Parallel Downloads to Minimize Object Overhead” // Web Site Optimization. — <http://www.websiteoptimization.com/speed/tweak/parallel/>.